

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA PEDAGOGIK JARAYONNI BOSHQARISH (TARBIYACHI-METODISTLAR MISOLIDA)

Ergasheva Barno Nuriddin qizi
Oriental Universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti stajyor-o'qituvchisi
Umarov Fozilbek
Oriental Universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti 101 -guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi maktabgacha ta'limning boshqaruv sohasidagi innovatsion xususiyatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Boshqaruv, ta'lim-tarbiya, maktabgacha ta'lim, elektron darslik, innovatsiya.

Abstract: This thesis talks about innovative features in the field of management of preschool education.

Key words: Management, education, preschool education, electronic textbook, innovation.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 8-moddasida: "Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.", deyilgan.¹

Respublikamizda qabul qilingan bir qator me'yoriy hujjatlarda, ta'lim sohasiga yangi innovatsion texnologiyalardan, jumladan, multimedia texnologiyasidan foydalanish dolzarb masala ekanligi qayd etilgan. Hozirgi kunda ta'lim sohasida multimediyaga asoslangan elektron darslik, qo'llanma va turli elektron didaktik vositalar yaratilmoqda hamda ulardan foydalanib kelinmoqda. Ammo maktabgacha ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonida multimedia texnologiyasidan foydalanish va shu asosda mashg'ulotlar jarayonida innovatsion uslublarni tatbiq etish imkoniyatlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Uzluksiz ta'lim tizimining birinchi turi bo'lgan maktabgacha ta'limda ham innovatsion texnologiyalarni izlash, ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayoniga foydalanishga mo'ljallangan innovatsion texnologiyalaridan biri ta'limiy multimedia texnologiyasi hisoblanadi. Multimedia texnologiyasi zamonaviy axborot texnologiyasining tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lib, quyidagi tashkil etuvchilaridan iborat: matn, jadval, grafika, musiqa, bezak, animatsiya, audio, video. Muallifning fikricha, ta'limda multimedia texnologiyasi va vositalaridan foydalanish uslubi "multimediyaviy hujum" uslubi deb nomlandi.

Har bir pedagogik, ta'lim va boshqa texnologiyalarning o'z uslubi bo'lgani kabi ta'limiy multimedia texnologiyasining ham o'z uslubi mavjud. "Multimediyaviy hujum" uslubi ta'lim jarayonida foydalanishga mo'ljallangan bo'lib, bu uslubdan foydalanishda ta'lim beruvchi avvalo o'rganiladigan materialga tegishli multimediali interfaol dasturiy mahsulot tayyorlaydi. Bola miyasiga o'rganiladigan o'quv materiali bir vaqtning o'zida matn, audio, video, grafika, musiqa va animatsiya ko'rinishida ta'sir etilsa, materialni qabul qilish va

¹ <https://lex.uz/docs/-5013007#-5013227>

xotirada saqlanishi ortadi. Bu “multimediaviy hujum” uslubining asosiy mazmuni xisoblanadi.

“Multimediaviy hujum” uslubidan mashg‘ulotning yangi materialni o‘rgatish qismida qo‘llaniladi. “Multimediaviy hujum” uslubining afzalligi quyidagilardan iborat:

- multimediali didaktik vosita jozibali, ta’sirchan, xarakatchan (dinamik holat) samara beradi;
- o‘quv materialining multimediali ko‘rinishda taqdim etilishi natijasida bola miyasining ikkala yarim shari bir vaqtda ishlaydi;
- multimediaviy hujum natijasida bolalarning diqqatlari barqarorlashadi, fikrlashlari ortadi va o‘quv materiallari ko‘proq qabul qilinadi;
- guruhlardagi bolalarning faolliklari ortadi;
- multimediali didaktik vosita interfaol dasturiy mahsulot hisobida ma’lum bir miqdorda vaqt tejiladi, tejalgan vaqt hisobiga bolaga qo‘shimcha ma’lumot berish imkoniyati yaratiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan multimediali texnologiya fikrimizcha, an’anaviy texnologiyalarga nisbatan quyidagilar bilan farqlanadi:

- bolalarning psixologik jihatlari;
- bolalarning yoshi (6-7 yosh);
- kompyuterli mashg‘ulotning davomiyligi (15 daqiqa);
- materialning bolalarga mosligi (multimedia shaklida);
- materialning hajmi (30 daqiqaga mo‘ljallangan);
- materialning murakkablik darajasi (bolalar uchun sodda materiallar tanlanadi);
- ularning faollik darajalari.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan multimediali kompyuter texnologiyasi variantida texnologik yondashuv quyidagicha kechadi: maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchisining o‘rganiladigan materialni o‘zlashtirishini qulaylashtirish va osonlashtirish maqsadida material bir-biri bilan bog‘liq qismlar, bo‘laklarga ajratiladi, so‘ngra ta’limdan mo‘ljallangan natija olish uchun amallar ketma-ket bajarilishi va loyihalashtirilgan ishlar poyoniga yetkazilishi ko‘zda tutiladi. Eng muhimi, ushbu texnologiyada o‘rganiladigan material multimedia asosida taqdim etiladi.

Bola miyasiga bunday “multimediaviy hujum” natijasida bolaning o‘zlashtirish darajasi ko‘tarilib, mashg‘ulot samaradorligi oshadi. Multimedianing yuqorida sanab o‘tilgan tashkil etuvchilarini kompyuterda ishlov berish (texnologik jarayon) natijasida, ularning bitta paketda (diskda) joylashtirilishi multimedia texnologiyasining mazmunini aks ettiradi.

Ta’limiy multimedia texnologiyasida ta’lim jarayoni “multimediaviy hujum” metodi asosida amalga oshiriladi, ya’ni bu jarayonda maktabgacha ta’lim muassasalarining tarbiyalanuvchilarining miyasiga bir vaqtning o‘zida multimedianing kamida uchta tashkil etuvchisi - audio, video va animatsiya orqali ta’sir etilishidan iborat. Shunga ko‘ra, ta’limiy

multimedia texnologiyasini maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishga mo'ljallangan innovatsion texnologiya deb qarashimiz mumkin.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning keng imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu jarayondagi asosiy vazifa rivojlangan davlatlar darajasiga yetib olishdan iboratdir.

Yuqorida bayon etilganlardan quyidagi xulosa va takliflarga kelish mumkin:

- maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining birinchi turi bo'lgani uchun uning uzluksiz ta'lim tizimida boshqa ta'lim turlari bilan uzviylikini ta'minlash;
- maktabgacha ta'limga tegishli o'ziga xos va mos multimedia texnologiyasidan foydalanish, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish, yaratish va ularning metodikasini shakllantirish;
- kompyuterdan o'yin vositasida emas, balki ta'lim berish vositasi sifatida foydalanish, turli ta'limiy va rivojlantiruvchi kompyuter o'yinlarini yaratish;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalari, shu jumladan, multimedia texnologiyasini ta'lim-tarbiya jaraëniga tatbiq etishga oid ilmiy-tadqiqot ishlariga ko'proq jalb etish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Bu esa barkamol avlod tarbiyasi hamda maktabgacha ta'lim muassasalarining mashg'ulotlar jarayonida innovatsion yondashuv bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M. Qayumova, M.N.A'zamova. Maktabgacha pedagogika. Darslik. Toshkent – 2017 yil.
2. Jalilova S.X., Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi.-Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2013.
3. Zaxarova T.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy kompetentsiyasini shakllantirish mexanizmlari va shartlari M.:2011 yil
4. <https://lex.uz/docs/-5013007v>